


## TOSHKENT VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(2019 yil yanvar-may)*

2019 yil yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 1888,8 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 141,4%ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 805,2 mln. AQSH dollarga (167,0%ga oshgan) va import hajmi 1083,6 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 126,9%) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 278,4 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


**Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSH dollar)



So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-


ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilga nisbatan, %)**



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning may oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar aprel oyiga nisbatan 12,5 mln. AQSH dollarga kamroq eksport qilindi va 169,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 234,3 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa aprel oyiga nisbatan 6,9 mln. AQSH dollariga kamroqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlariga to`g`ri keldi.

**2019 yil yanvar-may oylarida tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**  
*(mln. AQSH dollar)*



2019 yil yanvar-may oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar**

*(mln. AQSH dollar)*

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Qozog`iston	378,8	80,6	298,2	20,1
Xitoy	347,9	162,4	185,4	18,4
Rossiya	336,1	104,3	231,9	17,8
Turkiya	312,0	265,3	46,7	16,5
Koreya Respublikasi	79,1	5,3	73,8	4,2
BAA	34,8	34,6	0,2	1,8

*(mln. AQSH dollar)*

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Germaniya	34,0	0,8	33,2	1,8
Braziliya	32,3	0,0	32,3	1,7
Afg`oniston	27,4	27,1	0,3	1,5
Ukraina	26,6	18,8	7,8	1,4
Qirg`iston	26,6	19,2	7,4	1,4
Angliya	25,4	25,2	0,1	1,3
Litva	23,3	0,1	23,2	1,2
Tojikiston	22,6	7,5	15,1	1,2
Belarusiya	19,0	6,0	13,0	1,0
Italiya	16,0	1,2	14,8	0,9
Eron	12,3	6,4	5,9	0,7
Niderlandiya	12,1	8,7	3,4	0,6
Hindiston	11,4	1,1	10,3	0,6
Latviya	10,9	1,0	9,9	0,6


Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,4 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,9 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-may oylarida 57,9 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 56,6 %ga yoki 1,3 % punktga kamaydi.

## EKSPORT

2019 yil yanvar-may oylarida eksport hajmi 805,2 mln. AQSH dollarga (67,0 % ga oshgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (59,7 %), boshqa turdag'i tovarlar (14,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,5 %), paxta tolasi (13,3 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (1,5 %) shuningdek, mashina va asbob-uskunalar (2,3 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi  
(mln.AQSH dollar)**




**Eksport tarkibi**

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajninga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajninga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajninga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	<b>805,2</b>	<b>167,0</b>	<b>100,0</b>	<b>242,5</b>	<b>193,0</b>	<b>100,0</b>	<b>562,6</b>	<b>157,9</b>	<b>100,0</b>
Paxta tołasi	107,3	3,2m	13,3	0,1	10,8	0,01	107,2	3,3m	19,1
Oziq-ovqat mahsulotlari	68,8	142,9	8,5	52,3	2,4m	21,6	16,5	62,9	2,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	12,2	74,3	1,5	8,5	128,0	3,5	3,7	37,8	0,7
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,00	0,0	0,0	0,0
Qora va rangli metallar	480,5	165,2	59,7	94,2	2,4m	38,8	386,4	153,6	68,7
Mashina va asbob -uskunalar	18,6	205,3	2,3	6,7	2,4m	2,8	11,9	188,2	2,1
Xizmatlar	4,5	106,2	0,6	1,1	2,4m	0,5	3,4	89,5	0,6
Boshqalar	113,2	142,2	14,1	79,7	149,3	32,8	33,6	127,9	6,0

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-may oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari yanvar oyida kuzatilgan. Bu asosan qora va rangli metallar, paxta tolasiga to`g`ri keldi.

**Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi  
(o'tgan yilga nisbatan, %)**




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning may oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar aprel oyiga nisbatan 6,9 %ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 4,5 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6%ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2%ga oshgani kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning may oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, aprel oyiga nisbatan 12,5 mln. AQSH dollariga kam eksport qilindi va 169,7 mln. AQSH dollarini, shuningdek, xizmatlar eksporti esa 1,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

#### **2019 yil yanvar-may oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSH dollar)**



**Viloyat eksportida asosiy  
hamkor davlatlarning ulushi  
(2019 yil yanvar-may, %)**



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to‘g’ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 59,5 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

### **Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2019 yilning yanvar-may oylarida jami 48,9 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 52,6 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 1,1marttaga oshgan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-may oylarida 43,1 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 29,9 mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,5 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 4,5 ming tonna meva va rezavorlar 16,2 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 ming tonnaga kamroqdir.

### **Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi**




Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilinmoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-may oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 46,1 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 marttaga oshgan).

## **IMPORT**

Joriy yilning yanvar-may oylarida import hajmi 1083,6 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 126,9 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (30,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (17,9 %), qora va rangli metallar (16,3 %) hamda boshqa mahsulotlar (24,5 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

**Tovar va xizmatlar importi tarkibi**  
(*mln.AQSH dollarri*)




	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	<b>1083,6</b>	<b>126,9</b>	<b>100,0</b>	<b>577,5</b>	<b>132,3</b>	<b>100,0</b>	<b>506,2</b>	<b>121,2</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	193,6	3m	17,9	122,5	2,8m	21,2	71,2	3,5m	14,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	87,3	156,5	8,1	29,8	2,5m	5,2	57,5	131,8	11,4
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	15,8	107,3	1,5	14,8	105,2	2,6	0,9	157,1	0,2
Qora va rangli metallar	176,1	119,9	16,3	145,7	121,4	25,2	30,4	113,3	6,0
Mashina va asbob-uskunalar	332,6	89,2	30,7	49,1	31,5	8,5	283,5	130,6	56,0
Xizmatlar	12,5	15,8	1,2	2,5	107,5	0,4	10,1	13,1	2,0
Boshqalar	265,7	2,2m	24,5	213,1	2,4m	36,9	52,6	164,4	10,4

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-may oylari davomida yuqori o'sish sur'ati yanvar oyida kuzatilgan.

### **Tovarlar va xizmatlar importining o'sish**


**sur'atlari dinamikasi**  
*(o'tgan yilga nisbatan, %)*



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning may oyida import qilingan tovar va xizmatlar aprel oyiga nisbatan 2,9 %ga kamaygan.


Xizmatlar importi hajmi 12,5 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,2 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 84,2% ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

**2019 yil yanvar-may oylarida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi**  
*(oylar kesimida, mln. AQSH dollar)*



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar may oyida aprel oyiga nisbatan 6,9 mln. AQSH dollarga kam import qilindi va 1083,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy  
hamkor davlatlarning ulushi**  
*(2019 yil yanvar-may, %)*



**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning eksport-importi  
(2019 yil yanvar-may holatiga)**

	Eksport-import qilgan korxonalar soni	mln. AQSH doll.	O`tgan yilning shu davriga nisbatan foiz xisobida
<b>Eksport</b>	81	96,3	133,1
<b>Import</b>	226	309,0	2,6m

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda**




2019 yilning yanvar-may oylarida viloyatga 85 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya va Germaniya hamkor davlatlarining jami import hajmi 869,2 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 80,2 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rinnegallashlari uchun zamin yaratmoqda.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo`limi  
Tel.:71-230-86-59